

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING**  
**2021/2022 O'QUV YILI 2- YIG'ILISHI**  
**BAYONI**

**2021-yil 6-oktabr**  
**katta yig'ilishlar zali**

**Buxoro shahri**  
**soat 14:00**

Buxoro davlat universiteti kengashining 2021-2022 o'quv yilining 2-yig'ilishini kengash raisi, universitet rektori, i.f.d., professor O.X. Xamidov ochib berdi.

Kengash raisi bugungi 2 - kengash yig'ilishida 74 nafar kengash a'zosidan 70 nafari ishtirok etayotganligini, 3 nafar kengash a'zosi sababli bugungi kengashda ishtirok etmayotganligini ma'lum qilib, yig'ilishni ochish to'g'risidagi masalani kengash a'zolari hukmiga havola etdi. Kengash a'zolari yig'ilishni ochiq deb qabul qilishni bir ovozdan ma'qullashdi.

Shundan so'ng, kengash kun tartibi o'qib eshittirildi.

**KUN TARTIBI:**

**I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo'nalishi bo'yicha:**

**1.** Universitet nufuzini yanada oshirish, ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarish maqsadida davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan ishlar, xorijiy hamkorlar bilan uchrashuvlar, galdagi vazifalar to'g'risida

**(Rektor O.X. Xamidov)**

**II O'quv jarayoni yo'nalishi bo'yicha:**

2.O'quv jarayonini tashkil etish, universitetga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash masalalari to'g'risida

**(O'quv ishlari bo'yicha prorektor v.b. R.G'. Jumayev axboroti)**

**III. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo'nalishlari bo'yicha:**

**3.1.** Buxoro davlat universiteti Oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti faoliyati to'g'risida

**3.2.** Buxoro davlat universiteti Fakultet va kafedralari kesimida fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion-hamkorlik shartnomalari rejasining bajarilish holati to'g'risida

**(Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S.Qahhorov axboroti)**

**IV Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi bo'yicha:**

**4.1.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi "Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to'lanadigan ijara to'lovlarini qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 605-son qarori mazmuno-mohiyatini universitet pedagog-xodimlari va talabalari e'tiboriga yetkazish to'g'risida

**4.2.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi "Ota - onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar va boquvchisi yo'q yolg'iz ayollar oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 585-son qarori mazmuno-mohiyatini universitet pedagog-xodimlari va talabalari e'tiboriga yetkazish to'g'risida

**(Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor A.M. Kadirov axboroti)**

**V. Xalqaro hamkorlik bo'yicha:**

**5.1.** Oliy ta'lim tizimida hamkorlik masalalari va o'zaro tajriba almashish maqsadida horijiy safarga chiqqan professor o'qituvchilarning hisobotlari to'g'risida

**(Xalqaro hamkorlik bo'yicha horijiy safarda bo'lgan professor - o'qituvchilar axboroti)**

**VI. Jamoatchilik kengashi faoliyati bo'yicha:**

**6.1.** Universitetga ishga kirish uchun ariza yozgan fuqarolarni ishga qabul qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili to'g'risida

**(Korrupsiyaga qarshi kurashish “Kopmleens nazorat” tizimini boshqarish bo’limi  
boshlig’i Y.Q.Quliyev)**

**VII. Tanlovlar.**

7. Kafedra mudiri, professori, dotsenti, katta o‘qituvchi va o‘qituvchi (asistent) lavozimlariga navbatdagi tanlovlar to‘g‘risida

**VIII. Turli masalalar.**

8.1. Universitetning pedagog xodimlari tomonidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanmalarni vazirlik grifini olishga tavsiya berish to‘g‘risida.

**(O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i R.G‘.Jumayev axboroti)**

8.2. BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazidagi 2021-yil oktabr oyida tashkil etiladigan qisqa muddatli O‘zbekiston havo yo‘llari aviakompaniyasi xodimlari uchun tashkil qilingan Parvozlarni ornitologik xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha malaka oshirish kursi o‘quv rejasi, o‘quv dasturni tasdiqlash to‘g‘risida.

**(BuxDU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
mintaqaviy markazi direktori B.R.Adizov axboroti)**

8.3. Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2021-yil 30-iyuldagi “Oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida 2021-yil o‘tkazilgan respublika Online fan olimpiadasi natijalari va g‘oliblarni rag‘batlantirish to‘g‘risida

**(Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i U.Fozilova axboroti)**

8.4. Universitet professor-o‘qituvchilarining attestatsiya hujjatlarini OAK Nizom talablari aslosida ilmiy unvonlarga tavsiya etish haqida

**(Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor O.S.Qahhorov axboroti)**

8.5. Ilmiy ijodiy ta‘til berish haqida

8.6. 2-bo‘lim ishini elektronlashtirilgan holda samaradorligini oshirish maqsadida Axborot texnologiyalari fakulteti dasturiy injenering yo‘nalishi kechki ta‘lim talabalarini 0,5 stavkaga muxandis lavozimiga tavsiya etish to‘g‘risida

8.7. Falsafa doktori (PhD) doktorlik dissertatsiya mavzusi va ilmiy rahbarini qayta tasdiqlash to‘g‘risida.

Kengash raisi kun tartibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish mumkinligini ma‘lum qilib, kun tartibini tasdiqlab berishni ovozga qo‘ydi. Kengash a‘zolari kun tartibini bir ovozdan ma‘qullashdi hamda masalalar muhokamasi reglamanti belgilab olindi.

## KUN TARTIBI BO‘YICHA MASALALAR MUHOKAMASIGA O‘TILDI

### I. Universitet jamoasi bilan amalga oshiriladigan masalalar yo‘nalishi bo‘yicha:

#### 1. Universitet nufuzini yanada oshirish, ta‘lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan ishlar, xorijiy hamkorlar bilan uchrashuvlar, galdagi vazifalar to‘g‘risida

**ESHITILDI: O.X. Xamidov** (universitet rektori, kengash raisi) Universitet nufuzini yanada oshirish, ta‘lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan ishlar, xorijiy hamkorlar bilan uchrashuvlar, galdagi vazifalar to‘g‘risida kengash a‘zolariga tahliliy ma‘lumotlar berdi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda universitetning ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish, davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e‘tiboriga yetkazilishini ta‘minlash, hududlarni, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarini jadal rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar loyihalarining keng muhokamasida faol ishtirok etish, innovatsion va texnologik g‘oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo‘llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan aniq choralar ishlab chiqish, yetakchi mutaxassislar, faol tadbirkorlar bilan dolzarb masalalarda seminar va davra suhbatlarini doimiy ravishda o‘tkazib borish, ularning faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarning yechimiga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlarni olib borish, har bir prorektor uchun ushbu yo‘nalishda alohida “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqilishi va tasdiqlanishini ta‘minlash, ularning ijrosini nazorat qilish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha vazifalar belgilab olindi.

Har bir bo‘lim va har bir yo‘nalish ma‘ullariga tegishli vazifalar belgilab berildi. Universitetda ta‘lim-tarbiya sifatini yanada oshirish, talabalarning dars jarayonlarigda faol ishtirokini to‘liq ta‘minlash, borasidagi ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, fakultet ma‘ullarining e‘tiborini kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

#### Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori, kengash raisi O.X. Xamidovning “Universitet nufuzini yanada oshirish, ta‘lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan ishlar, xorijiy hamkorlar bilan uchrashuvlar, galdagi vazifalar to‘g‘risida” gi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitet nufuzini yanada oshirish, ta‘lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan ishlar va vazifalar barcha professor-o‘qituvchilarga yetkazilsin.

3. Prorektorlar tomonidan o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha “Yo‘l xaritalari” ni ishlab chiqish, tasdiqlanishini ta‘minlash, ijrosini nazorat qilish belgilab olinsin.

4. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor v.v.b. R.G’. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

### **II O‘quv jarayoni yo‘nalishi bo‘yicha:**

#### **2.O‘quv jarayonini tashkil etish, universitetga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash masalalari to‘g‘risida**

**ESHITILDI: R.G’.Jumayev** (O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i) kengash a‘zolariga O‘quv jarayonini tashkil etish, universitetga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish va qayta tiklash masalalari to‘g‘risida ma‘lumot berdi

## O'quv jarayonini tashkil etish, universitetga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash masalalari to'g'risida

2021/2022 o'quv yilida universitetda jami 67 ta bakalavriat ta'lim yo'nalishi kunduzgi shaklda talabalar tahsil oladi. Bakalavriat kunduzgi ta'lim shakli 1-kursda 45 ta, 2-kursda 56 ta, 3-kursda 45 ta, 4-kursda 31 ta ta'lim yo'nalishlari hamda 1-kursda 28 ta, 2-kursda 31 ta magistratura mutaxassisliklari mavjud.

Universitetda 2021/2022 o'quv yilida tahsil oladigan talabalarning umumiy kontingenti 22 663 (bakalavriat – 21 939 nafar, magistratura – 724 nafar) nafarni tashkil etishi (qo'shimcha qabul, 5 yillik mehnat staji, 2-mutaxassislikdan tashqari) kutilmoqda. Jumladan, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha Kunduzgi shaklda – 15 826 nafar, Sirtqi shaklda – 4 155 nafar, Kechki shaklda – 1 048 nafar, 2-mutaxassislik Sirtqi shaklda – 528 nafar, xorijiy OTMLar bilan qo'shma ta'lim dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha - 382 nafar, magistratura mutaxassisliklari bo'yicha – 655 nafar, xorijiy OTMLar bilan qo'shma ta'lim dasturlari magistratura mutaxassisliklari bo'yicha – 69 nafar.

Mavjud barcha yo'nalishlar (kunduzgi, sirtqi) 2-4 kurslar va magistratura mutaxassisliklari uchun ishchi o'quv rejalari va fan dasturlari tayanch OTMLardan olingan o'quv rejalar asosida, kadrlar buyurtmachilari bilan kelishilgan holda tayyorlangan.

1-kurslar uchun o'quv rejalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 16-iyuldagi 311-sonli "Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi xatiga asosan mutaxassislik kafedra professor-xodimlari tomonidan kadrlar buyurtmachilarining takliflarini inobatga olgan holda kredit-modul tizimi asosida tayyorlangan. Yangi o'quv yili uchun fakultetlarda ta'lim yo'nalishi, kursi, guruhlar kesimida dars jadvallari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. 2021/2022 o'quv yili uchun o'quv jarayoni grafigi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Buxoro davlat universitetida qabul jarayonini yuqori saviyada tashkil etish va yangi 2021/2022 o'quv yilini boshlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar Yo'l xaritasi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan bo'lib, mazkur Yo'l xarita bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. 2021/2022 o'quv yili o'quv jarayonining boshlanishida 1-kurs talabalari va ota-onalari uchun 1-haftalik kredit-modul tizimi bo'yicha seminar-trening o'tkazilishi belgilangan va bu tegishli o'quv rejalarda o'z ifodasini topgan. Bakalavr va magistratura dasturlari buyicha dastur katalogi (talabalarning "Yo'l xaritasi") O'quv-uslubiy boshqarma tarkibidagi Ta'limning kredit tizimini boshqarish sektori kafedralar bilan hamkorlikda ishlab chiqmoqda va uni talabalarga taqdim etadi. Dastur katalogi universitetning [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz) web sahifasiga joylashtiriladi hamda talabalarga "Handbook" shaklida taqdim qilinishi belgilangan. Unda har bir bakalavr va magistratura o'quv dasturning maqsadlari, qabul qoidalari, BuxDUdagi o'qish sharoitlari, akademik taqvim, talabalar 4 yillik yoki 2 yillik dastur davomida aynan qaysi fanlarni o'qishlari mumkinligi, ushbu fanlarning qisqacha tavsifi, qaysi fan aynan qaysi kursda o'rganilishi, ularni aynan kimlar o'qitishi, BuxDUda talabalar uchun yotoqxona imkoniyatlari, talabalarning bir oylik o'rtacha yashash xarajatlari, BuxDUda qo'llaniladigan baholash usul va mezonlari haqida abituriyent va talabalarga oldindan shaffof tarzda ma'lumot berilishi inobatga olingan.

Universitetda 2021/2022 o'quv yilida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Fakultet dekanlari va kafedra mudirlariga kredit-modul bo'yicha 2021-yil 27-30-iyun kunlari O'zMU O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i V.Topildiyev, 7-10-iyul kunlari TDIU Akademik faoliyat va registrator boshqarmasi (Academic Affairs and Registrar's office)dan M.Sultanov hamda F.Nasriddinovlar BuxDU taklifi asosida kelib, tegishli me'yoriy va o'quv-uslubiy hujjatlarni yangi 2021/2022 o'quv yiliga tayyorlash bo'yicha seminar-treninglar o'tkazganlar. Yosh o'qituvchilar uchun BuxDU huzuridagi Pedagog kafedrlarni tayyorlash va malakasini oshirish markazi hamda universitetning Pedagogika kafedrasini professor-o'qituvchilari tomonidan mahorat darslari tashkil etildi. Fakultet va kafedra Nizomlari ishlab chiqildi.


2021-2022 o'quv yilida Oliy ta'lim muassasalari talabalari o'qishini ko'chirish va qayta tiklash bo'yicha arizalarni topshirish [transfer.edu.uz](http://transfer.edu.uz) hamda xorijiy OTMLardan o'qishini ko'chirmoqchi bo'lgan talabalar uchun [transfer.dtm.uz](http://transfer.dtm.uz) platformalari orqali amalga oshirildi.

[Transfer.edu.uz](http://transfer.edu.uz) orqali universitet doirasida o'qishini ko'chirishga **648 nafar**, respublika OTMLaridan BuxDUga o'qishini ko'chirish bo'yicha **1467 nafar** talaba ariza bilan murojaat qilgan, shuningdek respublika OTMLari aro turdosh bo'lmagan ta'lim yo'nalishlariga o'qishlarini ko'chirish bo'yicha **86 nafar**, [transfer.dtm.uz](http://transfer.dtm.uz) platformasi orqali **1830 nafar**, o'qishini ko'chirish bo'yicha **49 nafar**, 2-mutaxassislikka o'qishga istagini bildirib **1178 nafar** talaba ariza bilan murojaat qilgan.

**2021/2022 o'quv yilida kafedra dars soatlari taqsimotini UNIWORK platformasiga shakllantirish holati**

<b>T/r</b>	<b>Kafedra nomi</b>	<b>Auditoriya yuklamasi</b>	<b>Auditoriyadan tashqari yuklama</b>	<b>Umumiy yuklama</b>	<b>Yaratilgan yuklama</b>	<b>Foiz</b>
1.	Fizika kafedrası	17856	14201	32057	27420,5	86%
2.	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası	11118	8557	19675	14355,5	73%
3.	Islom tarixi va manbashunoslik, falsafa kafedrası	7584	2719	10303	7005,3	68%
4.	Rus tili va adabiyoti kafedrası	29814	14366	44180	29528,5	67%
5.	Servis sohasi iqtisodiyoti	9422	7488	16910	9866	58%
6.	Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrası	15000	9707	24707	14144,4	57%
7.	Pedagogika kafedrası	16482	12556	29038	16424,6	57%
8.	Chaqiriqqacha harbiy ta'lim kafedrası	13800	9133	22933	12464	54%
9.	Tabiiy yo'nalishlarda chet tili kafedrası	23056	1622	24678	12988	53%
10.	Axborot texnologiyalari kafedrası	15254	9543	24797	12567,9	51%
11.	Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası	11232	18882	30114	14291,8	47%
12.	Matematik analiz kafedrası	12448	9088	21536	9600,4	45%
13.	Ekologiya va geografiya kafedrası	17342	11228	28570	12316,7	43%
14.	Psixologiya kafedrası	24386	15508	39894	17131	43%
15.	Umumiy va noorganik kimyo kafedrası	7830	5374	13204	5311,5	40%
16.	Tuproqshunoslik kafedrası	10012	10534	20546	7821,5	38%
17.	Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrası	12080	9148	21228	8035,5	38%
18.	Gumanitar yo'nalishlarda chet tili kafedrası	33114	2577	35691	13266	37%
19.	Texnologik ta'lim kafedrası	7858	5230	13088	4857,5	37%
20.	Differensial tenglamalar kafedrası	10630	7934	18564	6580	35%
21.	Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası	25280	8017	33297	11714,2	35%
22.	Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası	10526	6874	17400	5834,5	34%
23.	Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası	15612	9746	25358	7825	31%
24.	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyoti kafedrası	18776	18889	37665	11148	30%
25.	Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq kafedrası	10730	7462	18192	5328	29%
26.	Nemis va fransuz tillari kafedrası	23004	8604	31608	9079,2	29%
27.	Iqtisodiyot kafedrası	23274	16935	40209	10983	27%
28.	Organik va fizkolloid	7126	6824	13950	3807,4	27%

	kimyo kafedrası					
29.	Jahon tarixi kafedrası	6070	5914	11984	2904,5	24%
30.	Turizm va mehmonhona ho'jaligi kafedrası	15814	12803	28617	6879,5	24%
31.	Ingliz tilshunosligi kafedrası	20979	12415	33394	7009,6	21%
32.	Musiqa ta'limi kafedrası	23494	8151	31645	6560,9	21%
33.	Maktabgacha ta'lim kafedrası	13170	14664	27834	5704,4	20%
34.	Biologiya kafedrası	26292	15278	41570	7760	19%
35.	Buxoro tarixi kafedrası	13554	9337	22891	4121,4	18%
36.	Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrası	23872	7483	31355	5328,5	17%
37.	O'zbek tili va adabiyoti kafedrası	10868	11920	22788	3832	17%
38.	O'zbek tilshunosligi kafedrası	10634	8836	19470	3106,7	16%
	<b>Jami</b>	<b>605393</b>	<b>375547</b>	<b>980940</b>	<b>374903,4</b>	<b>38%</b>



**07.10.2021 sana 16-30 dagi holat**

T/r	Kafedra nomi	Umumiy yuklama	Tasdiqlanmagan yuklama	Vakant soat	Ko'rilmagan fanlar
1	Islom tarixi va manbashunoslik, falsafa kafedrası	7005,3	0	3285	120
2	Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrası	14144,4	0	988	36
3	Chaqiriqqacha harbiy ta'lim kafedrası	12464	0	0	0
4	Boshlang'ich ta'lim nazariyasi kafedrası	13507,5	848	1321,2	43
5	Axborot texnologiyalari kafedrası	12567,9	0	8265,9	84
6	Fizika kafedrası	25152,5	2268	9072	18
7	Tabiiy yo'nalishlarda chet tili kafedrası	11376	1612	11376	371

8	Pedagogika kafedrası	12092,1	4332,5	3978,4	86
9	Matematik analiz kafedrası	9600,4	0	5266,4	75
10	Umumiy va noorganik kimyo kafedrası	5311,5	0	588	68
11	Differensial tenglamalar kafedrası	6580	0	1363,5	51
12	Fakultetlararo jismoniy madaniyat va sport kafedrası	11714,2	0	11714,2	262
13	Gumanitar yo`nalishlarda chet tili kafedrası	11966	1300	0	211
14	Psixologiya kafedrası	16372,5	758,5	13254,5	313
15	Boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrası	12850,3	1441,5	2622,4	33
16	Ingliz adabiyotshunosligi kafedrası	5834,5	0	0	48
17	Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrası	5181	2644	3413	88
18	Organik va fizkolloid kimyo kafedrası	3807,4	0	3807,4	49
19	Ekologiya va geografiya kafedrası	8221,9	4094,8	1318,7	283
20	Milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va huquq kafedrası	4827	501	0	109
21	Iqtisodiyot kafedrası	10587	396	3947	363
22	Jismoniy madaniyat nazariyasi va uslubiyo kafedrası	9786,5	1361,5	9786,5	171
23	Rus tili va adabiyoti kafedrası	5616	23912,5	5225	83
24	Jahon tarixi kafedrası	2904,5	0	1009,5	36
25	Texnologik ta`lim kafedrası	4032,5	825	362	96
26	Turizm va mehmonhona ho`jaligi kafedrası	6089,5	790	6089,5	158
27	Nemis va fransuz tillari kafedrası	6082,9	2996,3	3937,8	244
28	Tuproqshunoslik kafedrası	5131,5	2690	1093,5	137
29	Musiqqa ta`limi kafedrası	6300,9	260	1164,2	135
30	Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrası	1672	6363,5	1672	36
31	O`zbek tili va adabiyoti kafedrası	3706	126	3706	217
32	Buxoro tarixi kafedrası	4001,4	120	1371	162
33	Maktabgacha ta`lim kafedrası	4426,9	1277,5	1021,4	236
34	Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrası	3697,5	1631	1661	113
35	O`zbek tilshunosligi kafedrası	3072,7	34	171,5	137
36	Biologiya kafedrası	7110	650	6757	331
37	Ingliz tilshunosligi kafedrası	7009,6	0	3108,3	119
38	Servis sohasi iqtisodiyoti	9277	589	9277	83
	Jami	<b>311080,8</b>	<b>63822,6</b>	<b>142994,8</b>	<b>5205</b>

Jami yaratilgan yuklamalar **374 903** soat  
Tasdiqlangan **311 081** soat  
Tasdiqlanmagan **63 823** soat  
Tarqatilmagan soat **142 995** soat

Mf.ijro.uz tizimi orqali 2021 yil 07.10.2021 yil holatida fakultet dekanlari tomonidan jami 42 ta hujjatni ijrosi ta`minlanmagan. Jumladan **Jismoniy madaniyat** (5/550, 5/528, 3/544, 5/930, 5/952) **Xorijiy tillar** (3/451, 3/654), **Pedagogika** (5/756), **San`atshunoslik** (9/2629, 9/2618), **Tabiiy fanlar** (2/89) fakultetlari tomonidan talabalar murojaati, vazirlikning xatlari ijrosi ta`minlanmagan.

Muddati o`tgan hujjatlar ichida eng ko`p bajarmagan fakultet jismoniy madaniyat fakulteti (18 tasi) tomonidan bajarilmagan. Ushbu hujjatlarni ijrosi fakultet dekanlari tomonidan ta`minlanmasada O`quv uslubiy boshqarma tomonidan ijrosi ta`minlandi.

### Tiklash 2021-yil 30-avgustdagi 1-son bayonnomaga asosan

№	Fakultet	Ta`lim yo`nalish	Soni
---	----------	------------------	------

1.	<b>AGRONOMIYA VA BIOTEXNOLOGIYA</b>	<i>Biologiya (turlari bo'yicha)</i>	1
2.		<i>Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi</i>	1
3.	<b>TABIIY FANLAR</b>	<i>Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i>	2
4.		<i>Kimyo</i>	1
5.	<b>XORIJIY TILLAR</b>	<i>Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili</i>	2
6.		<i>Filologiya va tillarni o'qitish: ingliz tili</i>	2
7.	<b>IQTISODIYOT VA TURIZM</b>	<i>Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish</i>	2
8.		<i>Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)</i>	2
9.		<i>Xizmatlar sohasi (faoliyat turlari va yo'nalishlari bo'yicha)</i>	4
10.		<i>Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i>	4
11.	<b>SIRTQI (MAXSUS SIRTQI) BO'LIMI</b>	<i>10 ta yo'nalish bo'yicha</i>	21
12.	<b>FIZIKA-MATEMATIKA</b>	<i>Fizika</i>	3
13.		<i>Matematika</i>	1
14.	<b>MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM</b>	<i>Maktabgacha talim</i>	1
15.	<b>SAN'ATSHUNOSLIK</b>	<i>Musiqqa ta'limi</i>	2
16.	<b>FILOLOGIYA</b>	<i>Filologiya va tillarni o'qitish: rus tili</i>	1
17.	<b>TARIX VA MADANIY MEROS</b>	<i>Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha)</i>	2
18.		<i>Milliy istiqlol g'oyasi, ma'naviyat asoslari</i>	1
19.	<b>PEDAGOGIKA</b>	<i>Texnologik ta'lim</i>	1
20.	<b>CHAQIRAQQACHA HARBIY TA'LIM</b>	<i>Chaqiraqqacha harbiy ta'lim</i>	1
	<b>JAMI</b>		<b>55</b>

**Ichki ko'chirish 2021-yil 30-avgustdagi 1-son bayonnomaga asosan**

<b>№</b>	<b>Fakultet</b>	<b>Ta'lim yo'nalish</b>	<b>Soni</b>
1.	<b>KUNDUZGI TA'LIM SHAKLIDAN SIRTQI TA'LIM SHAKLIGA</b>	<i>Biologiya (turlari bo'yicha)</i>	13
2.		<i>Boshlang'ich ta'lim</i>	22
3.		<i>Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili</i>	10
4.		<i>Geografiya</i>	1
5.		<i>Jismoniy madaniyat</i>	35
6.		<i>Pedagogika va psixologiya</i>	11
7.		<i>Psixologiya</i>	7
8.		<i>Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi</i>	7
9.		<i>Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i>	10
10.		<i>Matematika</i>	4
11.		<i>Maktabgacha talim</i>	5
12.		<i>Musiqqa ta'limi</i>	6
13.		<i>Texnologik ta'lim</i>	5
	<b>JAMI</b>		<b>136</b>
1.	<b>SIRTQI TA'LIM SHAKLIDAN KUNDUZGI TA'LIM SHAKLIGA</b>	<i>Biologiya (turlari bo'yicha)</i>	2
2.		<i>Boshlang'ich ta'lim</i>	9
3.		<i>Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili</i>	3
4.		<i>Geografiya</i>	1
5.		<i>Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i>	3
6.		<i>Maktabgacha talim</i>	18
7.		<i>Matematika</i>	1
8.		<i>Pedagogika va psixologiya</i>	6
9.		<i>Psixologiya</i>	1
10.		<i>Musiqqa ta'limi</i>	1
	<b>JAMI</b>		<b>45</b>

**Ichki ko'chirish 2021-yil 31-avgustdagi 2-son bayonnomaga asosan**

<b>№</b>	<b>Fakultet</b>	<b>Ta'lim yo'nalish</b>	<b>Soni</b>
----------	-----------------	-------------------------	-------------



1.	<b>KUNDUZGI TA'LIM SHAKLIDAN SIRTQI TA'LIM SHAKLIGA</b>	<i>Boshlang'ich ta'lim</i>	2
2.		<i>Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili</i>	3
3.		<i>Jismoniy madaniyat</i>	5
4.		<i>Pedagogika va psixologiya</i>	4
5.		<i>Psixologiya</i>	6
6.		<i>Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi</i>	1
7.		<i>Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)</i>	11
8.		<i>Matematika</i>	2
9.		<i>Musiqqa ta'limi</i>	3
<b>JAMI</b>			<b>37</b>

### Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. O'quv jarayonini tashkil etish, universitetga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash masalalari to'g'risidagi o'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. R.G'.Jumayev hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. O'quv jarayonini tashkil etish, universitetga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash masalalari to'g'risidagi o'quv ishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar qoniqarli deb hisoblansin.

3. O'quv jarayonini tashkil etish, universitetga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish va qayta tiklash masalalari yuzasidan mazkur kengash qarori barcha fakultetlar kengashlarining navbatdagi yig'ilishlarida muhokama qilinsin va ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish chora – tadbirlari belgilansin. (mas'ullar: fakultet dekanlari; muddat: bir oy davomida).

4. Kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ta'lim dasturi katalogini yaratish hamda BuxDU veb-sahifasiga qulay yuklanadigan formatda joylashtirilishi tashkil qilinsin.

5. Fanlarning o'quv adabiyotlari bilan ta'minlanganligi hamda yangi adabiyotlarni xarid qilish va tayyorlash bo'yicha reja asosida olib borilayotgan ishlar bo'yicha muntazam monitoring olib borilsin.

6. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o'quv ishlari bo'yicha prorektor v.v.b. R.G'. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

### **III. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar yo'nalishlari bo'yicha:**

#### **3.1. Buxoro davlat universiteti Oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti faoliyati to'g'risida**

**ESHITILDI: O.S.Qahhorov** (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor) kengash a'zolariga Buxoro davlat universiteti Oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti faoliyati to'g'risida ma'lumot berdi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-fevraldagi "2019-yilda vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligi hamda maqsadli vazifalarga erishishlarini baholashning asosiy mezonlari to'g'risida"gi 5445-sonli farmoyishining 1.2-ilovasidagi vazifalarga muvofiq ishlab chiqilgan "Doktorantlar maktabi to'g'risida"gi va "Talabgorlarning yakka tartibdagi rejasi bajarilishini har chorakda monitoring qilish tartibi to'g'risida"gi Nizomlar hamda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining 2021-yil 17-sentabrdagi 252-sonli buyrug'i asosida tashkil etilgan ishchi guruh tomonidan joriy yilning 21-22-sentabr kunlari universitetda tahsil olayotgan doktorant (DSc) va tayanch doktorant (PhD) lar faoliyatining samaradorligi monitoringi o'tkazildi.

Buxoro davlat universiteti Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutida jami 135 nafar tayanch doktorant (PhD), 7 nafar doktorant (DSc) va 4 nafar stajer-tadqiqotchilar faoliyat ko'rsatmoqda.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutining 1-bosqichida 6 nafar doktorant (DSc) va 77 nafar tayanch doktorant (PhD)lar, 2-bosqichida 29 nafar tayanch doktorant (PhD) lar, 3-bosqichida 1 nafar doktorant (DSc) va 34 nafar tayanch doktorant (PhD) lar faoliyat ko'rsatadi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti 3-bosqichida faoliyat ko'rsatayotgan doktorant (DSc) hamda tayanch doktorant (PhD) lardan 14 nafari H.I. Eshonqulov, Sh.Q. Gulyamova, N.N. Xolikova, E.B. Dilmurodov, S.S. Boboyev, N.B. Adizova, J.J. Jumayev, T.R. Shafiyev, S.F. Abduraxmonov, N.S. Qodirova, Z.N. Sohibova, M.U. Saidova, N.M. Hamdamova, Y.Jamilovlar) doktorlik dissertatsiyalarini muddatidan oldin himoya qildi, 4 nafari (S.M. Nurillayeva, F.F. Ganjiyev, R.O. Atoyeva, L.T. Yuldoshev) doktorlik dissertatsiyasini himoya kengashiga topshirgan, 8 nafarining (J.R. Tohirov, N.M. Nazarova, J.R.

Qodirov, O.R. Umarov, M.K. Ergasheva, A.A. Qodirov, N.A. Toshbekov, M.B. Ibragimov) doktorlik dissertatsiya ishlari fakultet va kafedra seminarida muhokamalardan o'tkazilgan, 9 nafari (I.I. Raxmatov, R.Z. Rajabova, D.D. Djurayeva, B.B. O'razov, M.K. Maxmudov, N.J. Salixov, M.A. Jumayeva, A.B. Yuldoshev, O.A. Klichev) esa belgilangan rejadan ortda qolmoqda.

**Oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti 2-bosqichida faoliyat ko'rsatayotgan tayanch doktorant (PhD) lardan 5 nafari (A.A. Majidov, D.B. Axmedova, M.X. Xamidova, G.SH. Qahhorova hamda Z.D. Rasulovalar) doktorlik dissertatsiyalarini muddatidan oldin himoya qildi. 2 nafari (J.J. Ramazonov va S.X. Axmedova) kafedra seminarlaridan o'tgan. 8 nafari (A.SH. Rashidov, M.SH. Shirinova, H.H. Turdiyev, A.X. Eshonqulov, A.T. Ochilov, O.B. Qurbonova, J.G. Zaripov, N.B. Norova) doktorlik dissertatsiyasini yakunlash bosqichida, 13 nafari (SH.R. Sharopova, L.A. Xayitov, A.N. Nusratov, G.Y. Sayidova, S.M. Umarova, N.N. Xayrullayeva, M.M. Narziyev, S.S. Xudayarov, N.F. Ochilov, X.SH. Saidov, Sh.S. Shodiyeva, F.Q. Shodmonov, Z.A. Boltayeva) belgilangan reja asosida ilmiy faoliyatini olib borayapti, 1 nafari (F. Qurbonova) esa belgilangan rejadan ortda qolmoqda.**

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti 1-bosqichida faoliyat ko'rsatayotgan tayanch doktorant (PhD) lardan 1 nafari (Z.R. Sobirova) muddatidan oldin doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. 76 nafari reja asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Barcha 1-bosqich tayanch doktorantlar (PhD) ning dissertatsiya mavzusi bo'yicha umumlashtirilgan qisqacha ma'lumot natijalari bo'yicha rahbar bilan birgalikda kafedra yig'ilishlarida ma'ruza qilishlari joriy yilning oktabr-noyabr oylariga rejalashtirilgan.

Doktorlik dissertatsiyalarini muddatidan oldin himoya qilgan tayanch doktorant (PhD) lar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi 696-sonli qaroriga asosan pul mukofoti bilan rag'batlantirilib kelmoqda. Belgilangan yakka tartibdagi shaxsiy ish rejada ko'rsatilgan talablarni bajarishdan ortda qolayotgan doktorantlar (DSc) va tayanch doktorant (PhD) lar, ularning ilmiy rahbarlari va maslahatchilari, tegishli fan sohasi bo'yicha fakultet dekanlari hamda kafedra mudirlari yil oxiriga qadar himoyaga chiqolmasligi mumkinligi ta'kidlanib, ogohlantirildi. Ularga doktorlik dissertatsiya himoyalari o'z muddatida ta'minlash uchun barcha amaliy choralarni ko'rish vazifasi yuklatildi.

#### **Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S. Qahhorovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutining 1-bosqichida faoliyat ko'rsatayotgan tayanch doktorant (PhD) lardan 1 nafari (Z.R. Sobirova), 2-bosqichida faoliyat ko'rsatayotgan tayanch doktorant (PhD) lardan 5 nafari (A.A. Majidov, D.B. Axmedova, M.X. Xamidova, G.SH. Qahhorova hamda Z.D. Rasulovalar) hamda 3-bosqich tayanch doktorant (PhD) lardan 14 nafari (H.I. Eshonqulov, Sh.Q. Gulyamova, N.N. Xolikova, E.B. Dilmurodov, S.S. Boboyev, N.B. Adizova, J.J. Jumayev, T.R. Shafiyev, S.F. Abduraxmonov, N.S. Qodirova, Z.N. Sohibova, M.U. Saidova, N.M. Hamdamova, Y.Jamilovlar) doktorlik dissertatsiyalarini muddatidan oldin himoya qilganligi e'tirof etilsin.

3. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutining 2-bosqichida faoliyat ko'rsatayotgan tayanch doktorant (PhD) lardan 1 nafari (F.N. Qurbonova) hamda 3-bosqichida faoliyat ko'rsatayotgan 1 nafar doktorant (DSc) (O.A. Klichev), hamda tayanch doktorant (PhD) lardan 8 nafari (I.I. Raxmatov, R.Z. Rajabova, D.D. Djurayeva, B.B. O'razov, M.K. Maxmudov, N.J. Salixov, M.A. Jumayeva, A.B. Yuldoshev) belgilangan yakka tartibdagi shaxsiy ish rejada ko'rsatilgan mezonlarni bajarishdan ortda qolayotganligi qayd etilsin.

4. To'qqiz oylik monitoring natijalariga ko'ra kamchiliklarga yo'l qo'ygan doktorant (DSc) hamda tayanch doktorant (PhD) larning ilmiy rahbari va tegishli kafedra mudirlari ogohlantirilsin hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilsin, fakultet Kengashi tomonidan tasdiqlansin. (mas'ullar: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, ilmiy rahbar va maslahatchilar, ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i).

5. Ilmiy ishlarini yakunlab, himoya kengashlariga topshirmagan barcha 3-bosqich doktorant (DSc) hamda tayanch doktorantlarga kafedralarning o'quv- yuklamasi hisobidagi soatlar hisobidan soat ajratilmasin.

6. Ushbu qaror ijro nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S. Qahhorovga yuklatilsin.

**3.2. Buxoro davlat universiteti Fakultet va kafedralari kesimida fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion-hamkorlik shartnomalari rejasining bajarilish holati to'g'risida**

**ESHITILDI: O.S.Qahhorov** (Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor) 2021-yil sentabr oyi holatida Fakultet va kafedralar kesimida fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion-korporativ hamkorlik shartnomalari rejasining bajarilish holati to'g'risida ma'lumot berdi.

2021-yilning sentabr oyi holatida kafedralarda ilmiy tadqiqot ishlarini bajarilishi yuzasidan viloyatdagi turli tashkilotlar va sanoat korxonalarini bilan 348 ta (umumiy summasi 541,7 mln. so'm) fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion-korporativ hamkorlik shartnomalari imzolangan bo'lib, umumiy tushum miqdori 409,7 mln. so'mni tashkil etmoqda. Universitet bo'yicha belgilangan yillik rejaning bajarilish holati 47,2 % ni tashkil etadi. Xo'jalik shartnomalarining belgilangan reja asosida bajarilishini fakultetlar kesimida tahlilini ko'radigan bo'lsak, natijalari quyidagicha:

**Fizika-matematika fakultetida** belgilangan reja 70,1 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 40,6 mln. so'mni tashkil etadi.

**Axborot texnologiyalari fakultetida** belgilangan reja 76,9 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 30,0 mln. so'mni tashkil etadi.

**Tabiiy fanlar fakultetida** belgilangan reja 85,7 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 43,7 mln. so'mni tashkil etadi.

**Agronomiya va biotexnologiya fakultetida** belgilangan reja 49,6 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 27,8 mln. so'mni tashkil etadi.

**Xorijiy tillar fakultetida** belgilangan reja 31,5 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 56,5 mln. so'mni tashkil etadi.

**Filologiya fakultetida** belgilangan reja 39,7 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 30,9 mln. so'mni tashkil etadi.

**Tarix va madaniy meros fakultetida** belgilangan reja 8,2 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 6,5 mln. so'mni tashkil etadi.

**Pedagogika fakultetida** belgilangan reja 41,9 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 27,6 mln. so'mni tashkil etadi.

**Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakultetida** belgilangan reja 25,7 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 25,0 mln. so'mni tashkil etadi.

**Iqtisodiyot va turizm fakultetida** belgilangan reja 53,0 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 36,6 mln. so'mni tashkil etadi.

**Jismoniy madaniyat fakultetida** belgilangan reja 28,6 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 14,8 mln. so'mni tashkil etadi.

**San'atshunoslik fakultetida** belgilangan reja 126,3 % ga bajarilgan. Umumiy tushum miqdori 69,5 mln. so'mni tashkil etadi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S. Qahhorovning "Fakultet va kafedralar kesimida fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion-korporativ hamkorlik shartnomalari rejasining bajarilish holati to'g'risida"gi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Fakultet va kafedralarda fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion-korporativ hamkorlik shartnomalari rejasining bajarilish holati qoniqarsiz ekanligi e'tirof etilsin. Fakultet dekanlari va kafedra mudirlarining mas'uliyati oshirilsin (mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari).

3. Belgilangan yillik reja ko'rsatkichlarini muddatidan oldin bajarganligi uchun **San'atshunoslik fakulteti dekani B.X. Madrimov (126,3 % )**, **Musiqqa ta'limi kafedrasi mudiri U.M. Mirshayev (182,4 %)**, **Ekologiya va geografiya kafedrasi mudiri Y.D. Xolovlar (106,2 %)** e'tirof etilsin.

4. Belgilangan yillik rejasi 30% dan kam bajargan Tarix va madaniy meros, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim, Jismoniy madaniyat fakultetlarida fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi innovatsion-korporativ hamkorlik shartnomalarining joriy holati qoniqarsiz ahvolda deb topilsin va belgilangan rejaning bajarilishi bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin. (mas'ul: fakultet dekanlari, kafedra mudirlari, muddat: 2021-yil 1-noyabrgacha).

5. Ushbu qaror ijrosining nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor O.S. Qahhorov zimmasiga yuklatilsin.

**IV Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishi bo'yicha:**

#### **4.1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi “Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to‘lanadigan ijara to‘lovlarini qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 605-son qarori mazmuno-mohiyatini universitet pedagog-xodimlari va talabalari e‘tiboriga yetkazish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: A.M. Kadirov** (Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi “Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to‘lanadigan ijara to‘lovlarini qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 605-son qarori mazmuno-mohiyatini universitet pedagog-xodimlari va talabalari e‘tiboriga yetkazish to‘g‘risida ma‘lumot berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6208-son Farmonining 3-bandiga muvofiq, 2021-yil 1-maydan boshlab yotoqxonalar bilan qamrab olinmagan va o‘ziga, shu jumladan ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli bo‘lmagan uyda ijara huquqi asosida yashaydigan talabalarning 60 foiziga ular tomonidan to‘lanadigan oylik ijara to‘lovining 50 foizini Davlat budjeti hisobidan qoplab berish belgilandi.

Mazkur Farmon ijrosi yuzasidan “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarning oylik ijara to‘lovining bir qismini qoplab berish tartibi to‘g‘risida”gi nizomiga muvofiq BuxDUda tahsil oluvchi va ular orasidan ijara huquqi asosida yashaydigan talabalarning yillik ijara to‘lovining bir qismini qoplab berish maqsadida universitet komissiyasi shakllantirildi. Komissiya birinchi navbatda universitetda tahsil oluvchi talabalar o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son qarori hamda “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining ijara huquqi asosida yashayotgan talabalarning oylik ijara to‘lovining bir qismini qoplab berish tartibi to‘g‘risida”gi nizom bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib bordi. Targ‘ibot-tashviqot ishlaridan so‘ng mazkur komissiyaga 70 ga yaqin talabalar tomonidan ariza va tegishli tartibdagi hujjatlar topshirildi. Komissiya Nizom asosida nomzodlarning hujjatlarini tegishli tartibda o‘rganib chiqdi va 62 nafar talabaga oylik ijara to‘lovining 50 foizi(bazaviy hisoblash miqdorining 0,5 baravarida(122 500 so‘m)ni Davlat budjeti hisobidan qoplab berish uchun universitet ma‘muriyatiga tavsiya berdi.

**Komissiya tavsiyasiga asosan 62 nafar talabani 45 nafari uchun Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi hamda Agronomiya va biotexnologiya fakulteti dekani o‘rinbosari I.Barakayev tashabbusi bilan O‘zsanoatqurilishbank ATB Buxoro mintaqaviy filiali orqali bank kartasi ochib berildi.** Shundan so‘ng 62 nafar talabalarning barchasiga nizomda belgilangan tartibda oylik ijara to‘lovining 50 foizi (bazaviy hisoblash miqdorining 0,5 baravarida(122 500 so‘m) miqdorida ikki oylik to‘lov Davlat budjeti hisobidan to‘lab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi “Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to‘lanadigan ijara to‘lovlarini qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 605-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi 605-son qarori qabul qilindi. Shu asosda universitet rektorining buyruq loyihasi shakllantirildi.

Mazkur qaror bilan Quyidagilarni nazarda tutuvchi “Davlat oliy ta‘lim muassasalarining ijara huquqi asosida yashayotgan talabalariga oylik ijara to‘lovining bir qismini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berish tartibi to‘g‘risida”gi nizom tasdiqlandi.

BuxDUning faqat kunduzgi ta‘lim shaklida, davlat granti yoki to‘lov-kontrakt asosida tahsil oladigan va ijara huquqi asosida yashaydigan barcha talabalarga oylik ijara to‘lovining bir qismini belgilangan mezonlar asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berish;

ariza beruvchi talaba tomonidan oylik ijara to‘lovining bir qismini qoplab berish uchun o‘zi ta‘lim olayotgan fakultet(fakultet yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari)ga yoki BuxDUning talabalarni turar joy bilan ta‘minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo‘limiga yozma ariza bilan murojaat etish tartibi;

BuxDUning ijara huquqi asosida yashayotgan talabalariga oylik ijara to‘lovining bir qismini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berish bo‘yicha talabgorlarni tanlab olish komissiyasi tomonidan talabani ijtimoiy mezonlar bo‘yicha o‘rganish va talabaga oylik ijara to‘lovining bir qismini qoplab berishni ko‘rib chiqish;

ijara huquqi asosida yashaydigan talabaga oylik ijara to'lovlarining bir qismini qoplab berishni moliyalashtirish va to'lab berish tartibi belgilandi.

Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida quyidagi tarkibda doimiy faoliyat yurituvchi ishchi guruh tasdiqlandi (ishchi guruh lavozimga ko'ra belgilanganligini inobatga olib, ushbu lavozimdagi xodim boshqa ishga o'tgan taqdirda mazkur lavozimga tayinlangan xodim uning vazifasini bajaradi):

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, komisiya raisi,  
Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'lim boshlig'i,  
Universitet Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi,

A'zolar:

Universitet Yoshlar ittifoqi BT yetakchisi,

Universitet Bosh auditori,

Universitet Bosh hisobchisi,

Katta yuriskonsul't,

Barcha fakultet dekanining yoshlar bilan ishlash bo'yicha bo'yicha o'rinbosarlari,

Talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'limi mas'ul xodimi, Komisiya kotibi shakllantirildi.

### **Komissiya tomonidan kuyidagi ishlar amalga oshiriladi:**

bugungi kunda universitetda tahsil olayotgan ijarada istiqomat qilayotgan talabalar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-son Farmonining 3-bandiga muvofiq joriy yilning 1-mayidan yotoqxonalar bilan qamrab olinmagan va o'ziga, shu jumladan ota-onasi (qonuniy vakillari)ga tegishli bo'lmagan uyda ijara huquqi asosida yashaydigan talabalarga oylik ijara to'lovining 50 foizi to'lab berilishi bo'yicha targ'ibot tashviqot ishlarini olib borish hamda belgilangan tartibda ularning hujjatlarini qabul qilish,

mazkur talabalar tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan hujjatlarni "Davlat oliy ta'lim muassasalarining ijara huquqi asosida yashayotgan talabalariga oylik ijara to'lovining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplab berish tartibi to'g'risida"gi nizomga muvofiq o'rganib chiqish,

tegishli hujjatlari mavjud ijara huquqi asosida yashaydigan talabalarga ular tomonidan to'lanadigan oylik ijara to'lovining 50 foizi (bazaviy hisoblash miqdorining 0,5 baravarida (135 ming so'm)ni 2021-yilning sentabr oyidan to'lashga tavsiya etish.

**3. Yuqorida zikr etilgan qarorning 3-bandiga muvofiq BuxDU tomonidan ijara huquqi asosida yashayotgan, biroq ijara to'lovlari ushbu qarorda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan qoplanadigan talabalar toifasiga kirmaydigan boshqa talabalarning oylik ijara to'lovi bir qismini universitetning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplab berish tartibi universitet kengashi tomonidan joriy etilishi va mustaqil belgilanishi inobatga olib taklif tayyorlanmoqda.**

**Ijara to'lovining bir qismini qoplab berish uchun ariza bilan murojaat etish tartibi belgilandi**

Ariza beruvchi mustaqil ravishda quyidagi holatlardan kamida birini tasdiqlovchi ma'lumot yoki hujjatlarni ilova qilgan holda Nizomga muvofiq shakldagi anketa-arizani ikki nusxada to'ldirib, o'zi ta'lim olayotgan fakultetning yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari yoki oliy ta'lim muassasasining talabalarni turar joy bilan ta'minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo'limiga (keyingi o'rinlarda - mas'ullar) topshiradi:

kam ta'minlangan oilalarning farzandlari bo'lganligi (kam ta'minlangan oila deb topish tuman (shahar) mahalla va oilani qo'lab-quvvatlash bo'limlari yoki "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" avtomatlashtirilgan tizimi tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi);

boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar (ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar) farzandlari bo'lganlar;

I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar;

to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan maxrum bo'lganlar;

vasiylik yoki xomiylik belgilangan va oilaga tarbiyaga (patronat) olingan bolalar;

"Temir daftar"ga kiritilgan oila farzandi bo'lganlar;

onasi “Ayollar daftari”ga kiritilgan oila farzandi bo‘lganlar;  
va II gurux nogironligi bo‘lgan shaxslarning farzandi bo‘lganlar;  
oila a‘zolari “Mehnat-migratsiya” dasturida ro‘yxatdan o‘tganligi hamda xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotganligi;

ota-onasi ijtimoiy himoyaga muxtoj bo‘lganligi (bandligi ta‘minlanmagan, ishlash istagida bo‘lgan, daromad manbaiga ega bo‘lmagan, shu jumladan, mehnat qilish qobiliyatini qisman yo‘qotgan);

oliy ta‘lim muassasasida ikki va undan ortiq farzandi shartnoma asosida o‘qiyotgan oilalar farzandi bo‘lganlar;

davlat oliy ta‘lim muassasasida o‘rnak ko‘rsatganligi va faol bo‘lganligi (xalqaro, respublika, hudud va ta‘lim muassasasi miqyosida o‘tkazilgan fan olimpiadalari va sport musobaqdlari, ko‘rik tanlovlari g‘oliblari, fanlardan o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan, ma‘naviy-ma‘rifiy va sport tadbirlarida faol qatnashganligi, jamoatchilik asosida targ‘ibot guruhlaridagi volontyorlik faoliyati).

**Ariza beruvchidan ushbu bandeda ko‘rsatilmagan ma‘lumot va hujjatlarni talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi.**

Oylik ijara to‘lovining bir qismini qoplab berish:

o‘quv yili davomida, ya‘ni xar yili 1-sentabrdan 1-iyulgacha etib yoki o‘qitish dasturi bo‘yicha o‘quv yilining davomiyligiga qarab belgilanadi;

ariza beruvchi tomonidan har oyning 7-sanasiga qadar arizalar mas‘ullarga takdim etilganidan so‘ng amalga oshiriladi.

Ushbu muddatlar tugagandan keyin taqdim etilgan arizalar ko‘rib chiqilmaydi.

Ariza beruvchi taqdim etilgan hujjatlar va ularda ko‘rsatilgan ma‘lumotlarning ishonchliligi va haqqoniyligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi “Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to‘lanadigan ijara to‘lovlarini qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 605-son qarori mazmuno-mohiyatini universitet pedagog-xodimlari va talabalari e‘tiboriga yetkazish to‘g‘risidagi masala yuzasidan Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor A.Kadirovning ma‘ruzasi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Barcha fakultetlarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi “Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar tomonidan to‘lanadigan ijara to‘lovlarini qoplab berish tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 605-son qarorining mazmun-mohiyati pedagog-xodimlar va talaba-yoshlar e‘tiboriga yetkazilsin hamda universitet rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi kanal sahifalarida keng ma‘lumot berilsin (**Mas‘ul: Jamoat tashkilotlari rahbarlari, dekanlar, dekan o‘rinbosarlari, matbuot kotibi. Muddat uch ish kunida.**)

3. **Har oyning 7 sanasiga qadar** barcha fakultetlarda tahsil ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar ro‘yxati qaror bilan tasdiqlangan Nizom talabiga muvofiq shakllantirilsin va universitetda faoliyat olib boruvchi doimiy komissiyaga taqdim etilsin (mas‘ul: Barcha fakultet dekanlari, dekan o‘rinbosarlari, kafedra mudirlari, jamoat tashkilotlari rahbarlari).

4. Ijara huquqi asosida yashayotgan talabalar bilan ishlash bo‘yicha universitetda shakllantirilgan doimiy komissiya tomonidan fakultetlar olingan ma‘lumotlarni belgilangan tartibda o‘rganib chiqilsin hamda Nizomga muvofiq 135 ming so‘mdan har bir oy uchun Davlat budjeti tomonidan to‘lab berilishiga tavsiya bersin (mas‘ul: komissiya raisi, a‘zolari va komissiya kotibi. **Muddat bir haftada.**)

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor A.Kadirov zimmasiga yuklatilsin.

**4.2.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Ota - onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar va boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollar oliy ta‘lim olishini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 585-son qarori mazmuno-mohiyatini universitet pedagog-xodimlari va talabalari e‘tiboriga yetkazish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: A.M. Kadirov** (Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor) кенгаш аъзоларига O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi "Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar va boquvchisi yo'q yolg'iz ayollar oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 585-son qarori mazmuno-mohiyatini universitet pedagog-xodimlari va talabalari e'tiboriga yetkazish to'g'risida ma'lumot berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 5-martdagi PQ-5020 son qarori ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi "**Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar va boquvchisi yo'q yolg'iz ayollar oliy ta'lim olishini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida**"gi 585-son qarori ishlab chiqildi. Unga ko'ra Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-sentabrdagi 445-sonli buyrug'i va shu asosda universitet rektorining 2021-yil 28-sentabrdagi 395-U sonli buyrug'i ishlab chiqildi.

Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida quyidagi tarkibda doimiy faoliyat yurituvchi ishchi guruh tasdiqlansin (ishchi guruh lavozimiga ko'ra belgilanganligini inobatga olib, ushbu lavozimdagi xodim boshqa ishga o'tgan taqdirda mazkur lavozimiga tayinlangan xodim uning vazifasini bajaradi):

BuxDU rektori, ishchi guruh raisi,

Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, rais o'rinbosari,

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, rais o'rinbosari,

Universitet Xotin-qizlar maslahat kengashi raisi, ishchi guruh kotibi,

A'zolar:

"Qabul komissiyasi" mas'ul kotibi,

Universitet KUQ raisi,

Universitet Yoshlar ittifoqi BT yetakchisi,

Universitet Bosh auditori,

Universitet Bosh hisobchisi,

Katta yuriskonsul't,

Sirtqi bo'lim boshlig'i,

Barcha fakultet dekanining yoshlar bilan ishlash bo'yicha bo'yicha o'rinbosarlaridan iborat shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son qaroriga muvofiq:

a) 2021/2022 o'quv yilidan boshlab bazaviy to'lov-kontrakt asosida davlat oliy ta'lim muassasasiga qabul qilingan, **ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarni** (keyingi o'rinlarda - talabgorlar) Koraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda davlat oliy ta'lim muassasalari hisobidan o'qitish tartibi joriy etilganligi;

b) bunda, o'qish uchun to'lov pullari:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan har yili 100 nafardan xotin-qizlar uchun mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari xisobidan;

moliyaviy barqaror davlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan ularning kengashlari qaroriga asosan **50 nafargacha** xotin-qizlar uchun davlat oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tanqari mablag'lari hisobidan qoplab berilishi belgilangan.

### **Talabgorlarni aniqlash mezonlari va shartlari quyidagicha:**

1. Qorakalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda davlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan bazaviy to'lov-kontrakt miqdorini to'lab berish maqsadida talabgorlarni tanlab olish quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi:

2. a) to'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, ya'ni otasi yoki onasi yoxud ularning ikkalasi ham vafot etgan muxtoj qizlar;

3. b) boquvchisi yo'q extiyojmand yolg'iz ayollar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan o'tkazilgan test sinovi (kasbiy (ijodiy) imtixon, yozma imtixon) natijalariga ko'ra davlat oliy ta'lim muassasalariga bazaviy to'lov-kontrakt asosida qabul qilingan va 2 - 4 - kurslarda tahsil olayotgan mazkur Nizomning 5-bandidagi mezonlarga mos keluvchi xotin-qizlar test natijalari e'lon qilingan kundan boshlab ijtimoiy holati to'g'risidagi ma'lumotnomani (hujjatni) har yili 10 kalendar kun ichida oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasiga taqdim etadi.

Talabgorlar oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasiga ijtimoiy holati to'g'risida fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limi tomonidan berilgan quyidagi ma'lumotnomalarni taqdim etadi:

talabgorning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi nusxasi;

ota-onasi yoki ularning biri vafot etganligi to'g'risida o'lim guvohnomasi nusxasi (mazkur Nizom 5-bandining "a" kichik bandidagi holatda);

yolg'iz ona ekanligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma (mazkur Nizom 5-bandining "b" kichik bandidagi holatda).

4. Har bitta davlat oliy ta'lim muassasasi belgilangan mezonlar asosida talabgorlar ro'yxatini shakllantirib, ularning doimiy yashash joyi bo'yicha hokimliklarga yozma ravishda ma'lumotlarni yuboradi.

5. Bunda mazkur Nizomning 5-bandida keltirilgan mezonlar dan biri asosida davlat oliy ta'lim muassasasiga o'qishga tavsiya etilgan va tahsil olayotgan talabgorlar ro'yxati tahlil qilinib 5 kalendar kun mobaynida tegishliligi bo'yicha hokimliklarga bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va o'quv yili uchun to'lov-kontrakt miqdorlari aniq ko'rsatilgan holda davlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etiladi.

6. Hokimliklar doimiy yashash joyi bo'yicha barcha davlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan taqdim etilgan talabgorlar ro'yxati belgilangan tartibda mazkur Nizomga muvofiq tarkibda tuzilgan Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yo'q yolg'iz ayollarning oliy ta'lim olishlarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash komissiyasi (keyingi o'rinlarda - Komissiya) tomonidan ko'rib chiqilib, tegishli bayonnoma rasmiylashtiriladi.

7. Komissiya 15 kalendar kunda (lekin har o'quv yilida 15-sentabrdan kech bo'lmagan muddatda) bazaviy to'lov-kontrakt summalari to'lab berilishi belgilangan talabgorlar ro'yxatini hamda shartnomani imzolash bo'yicha xulosalarni tegishliligi bo'yicha davlat oliy ta'lim muassasalariga yozma ravishda kiritadi va belgilangan tartibda shartnomalarni rasmiylashtiradi.

8. Bunda Komissiya a'zolari tomonidan talabgorlar dan 100 nafarini tanlab olishda birinchi navbatda ularning ijtimoiy holati, extiyojmandligi, to'plagan ballari, hududlardagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlarga bo'lgan extiyoj hamda tahsil olayotgan bosqichlari inobatga olinadi.

9. Davlat oliy ta'lim muassasalari moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, hokimliklar tomonidan ko'rib chiqilib, tavsiya etilmagan talabgorlar orasidan o'zlarining kengashlari qarori bilan tanlab olingan 50 nafargacha bo'lgan xotin-qizlarni birinchi o'quv yilida budjetdan tanqari to'lov-kontrakt mablag'lari hisobidan bepul o'qitishni ta'minlaydi. Bunda birinchi navbatda to'liqsiz oilada tarbiyalanayotgan, ya'ni otasi yoki onasi yoxud ularning ikkalasi ham vafot etgan muhtoj xotin-qizlarga e'tibor qaratiladi.

10. Talabgorlarni tanlab olish va ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mazkur Nizomga keltirilgan sxema asosida amalga oshiriladi.

11. Koraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda davlat oliy ta'lim muassasalari tomonidan tanlab olingan talabgorlar joriy o'quv yili davomida oliy ta'lim muassasasini yoki ta'lim yo'nalishini o'zgartirsa yoxud talabalar safidan chetlashtirilsa mazkur imtiyozdan mahrum bo'ladilar.

## 12. Davlat oliy ta'lim muassasalari:

2022/2023 o'quv yilidan boshlab har yili 1-sentabrga qadar ikkinchi va undan keyingi o'quv yillari uchun ta'lim kredita olishi zarur bo'lgan talabgorlar ro'yxatini;

2024/2025 ukuv yilidan boshlab har yili 1-avgustga qadar o'qishni tamomlagan va ish joyi bilan ta'minlash lozim bo'lgan talabgorlar ro'yxatini doimiy yashash hududi bo'yicha Qoraqalpog'iston



Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yozma ravishda taqdim etadi.

**Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar va boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollar oliy ta‘lim olishini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 585-son qarori mazmuno-mohiyatini universitet pedagog-xodimlari va talabalari e‘tiboriga yetkazish to‘g‘risidagi masala yuzasidan Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor A.Kadirovning ma‘ruzasi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Barcha fakultetlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 5-martdagi PQ-5020 son qarori ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar va boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollar oliy ta‘lim olishini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 585-son qarorining mazmun-mohiyati pedagog-xodimlar va talaba-yoshlar e‘tiboriga yetkazilsin hamda universitet rasmiy sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi kanal sahifalarida keng ma‘lumot berilsin (Mas‘ul: Jamoat tashkilotlari rahbarlari, dekanlar, dekan muovnlari, matbuot kotibi. Muddat uch ish kunida).

3. Uch ish kuni muddatida barcha fakultetlarda tahsil olayotgan Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar va boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollar ro‘yxati qaror bilan tasdiqlangan Nizom talabiga muvofiq shakllantirilsin va universitetda faoliyat olib boruvchi doimiy komisiyaga taqdim etilsin (mas‘ul: Barcha fakultet dekanlari, dekan o‘rinbosarlari, kafedra mudirlari, jamoat tashkilotlari rahbarlari).

4. Ota-onasi yoki ularning biridan ayrilgan muhtoj qizlar va boquvchisi yo‘q yolg‘iz ayollar bilan ishlash bo‘yicha universitetda shakllantirilgan doimiy komissiya tomonidan fakultetlar olingan ma‘lumotlar asosida qarorda nazarda tutilgan mutasaddi tashkilotlar va Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligiga uch ish kuni muddatida ma‘lumot taqdim etilsin (mas‘ul: komissiya raisi o‘rinbosarlari, a‘zolari va komissiya kotibi. Muddat uch ish kunida).

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha prorektor A.Kadirov zimmasiga yuklatilsin.

**V. Xalqaro hamkorlik bo‘yicha:**

**5.1.** Oliy ta‘lim tizimida hamkorlik masalalari va o‘zaro tajriba almashish maqsadida horijiy safarga chiqqan professor o‘qituvchilarning hisobotlari to‘g‘risida

**(Xalqaro hamkorlik bo‘yicha horijiy safarda bo‘lgan professor - o‘qituvchilar axboroti)**

**(D.Tosheva, B. Ma‘murov)**

**ESHITILDI: Buxoro davlat universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti dekani, prof. B.B.Ma‘murovning Rossiya Federatsiyasi Moskva shahriga qilgan xizmat safari to‘g‘risida**

Moskva davlat universitetining rasmiy taklif xati va universitet rektorining 2021 yil 13 sentabrdagi 152-X/S sonli buyrug‘i asosida xizmat safari 2021-yilning 15 sentabridan 28-sentabrigacha davom etdi.

16-18-sentabr kunlari Moskva davlat universitet bilan mavjud qo‘shma ta‘lim dasturlari masalalarini muhokama qilish uchun universiteti rahbariyati bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Uchrashuvlar davomida Buxoro davlat universiteti professor-o‘qituvchilarining Moskva davlat universitetida qisqa muddatli malaka oshirish dasturlarini tashkil etishga kelishib olindi.

20 - 23-sentabr kunlari Vernadskiy nomidagi Qrim federal universitetida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada ishtirok etildi va universitet taqdimoti o‘tkazildi. Mazkur universitet bilan hamkorlikda 2022 yilning birinchi choragida ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazish, o‘quv - ilmiy sohada hamkorlik qilish rejalashtirildi. Bundan tashqari, Sevastopol davlat universiteti “Jismoniy madaniyat va sport” markaziga tashrif buyurilib, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini offlayn va onlayn shaklda tashkil etish amaliyoti bilan tanishildi.

24-25-sentabr kunlari Moskva davlat universitetida o‘quv mashg‘ulotlari olib borildi, kafedralararo hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

26-27-sentabr kunlari Moskva pedagogika davlat universiteti bilan BuxDU Pedagogika instituti o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha uchrashuvlar o‘tkazildi.

## Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Buxoro davlat universitetidan xorijiy safarga yuborilgan professor-o'qituvchilarning safar bo'yicha hisobotlari axborot uchun qabul qilinsin.
2. Xorij safarlari samaradorligini oshirish safar natijalarining OAV orqali, shuningdek seminar va treninglar orqali keng ommaga tarqatilishi orqali amalga oshirilishi zarurligi ta'kidlansin.
3. Universitetda rahbariyat va professor-o'qituvchilar kesimida xorijiy tillarni bilish darajasi past ekanligi alohida ko'rsatib o'tilsin. Mazkur masalani hal qilish bo'yicha a) Xorijiy til sertifikatiga ega bo'lgan o'qituvchi, tadqiqotchi va talabalar ro'yxatini shakllantirilsin (muddat: 25.10.2021 y., mas'ul: fakultet dekanlari); b) Xorijiy tillar markazida 1-guruhda prorektorlar va dekanlar uchun, 2-guruhda kafedra mudirlari uchun 3 oylik intensiv xorijiy til kurslarini tashkil etilsin, kurs o'qituvchilari uchun moddiy rag'batlantirish tashkil etilsin (boshlash muddati: 27.10.2021 y., mas'ullar: prorektorlar A.Jo'rayev, O'.Rashidov, Xorijiy tillar fakulteti dekani M.Jo'rayeva).
4. Kafedralardan shakllangan malaka oshirish guruhlari uchun xorijdagi hamkor OTMda gibrid usulda malaka oshirishni tashkil etilsin, shu jumladan, yil oxirigacha 30 nafar o'qituvchi (mas'ullar: prorektorlar R.Jumayev, A.Jo'rayev, O'.Rashidov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari).
5. Oliy ta'lim muassasalari reytingiga tegishli ko'rsatkichlarning ijrosi bo'yicha kafedralarda ishlar yetarli darajada tashkil etilmaganligi ko'rsatib o'tilsin.
6. Talabalarning xorijda ta'lim olish, malaka oshirish, amaliyot o'tashi bilan bog'liq ishlarning rasmiylashtirilishida sustkashlikka aslo yo'l qo'yib bo'lmasligi ta'kidlansin, xorij safarlarini kechiktirib rasmiylashtirish yoki rasmiylashtirmaslik holatlari aniqlanganda mas'ullarga intizomiy chora ko'rish belgilansin (mas'ul: prorektor A.Jo'rayev, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari).

### **VI. Jamoatchilik kengashi faoliyati bo'yicha:**

#### **6. Universitetga ishga kirish uchun ariza yozgan fuqarolarni ishga qabul qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili to'g'risida**

**ESHITILDI: Y.Q.Quliyev** (Korrupsiyaga qarshi kurashish "Kopmelaens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i) Universitetga ishga kirish uchun ariza yozgan fuqarolarni ishga qabul qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tahlili to'g'risida ma'lumot berdi.

Joriy yilda universitetga yangi ishga qabul qilinadigan pedagog xodimlar bilan rektor Obidjon Xamidov boshchiligidagi tuzilgan komissiya va jamoatchilik kengashi ishtirokida dastlabgi saralash suxbatlari o'tkazildi. Bunda nomzodlarning o'z mutaxassisligini mukammal egallaganligi, xukumat qarorlaridan xabardorligi, kompyuter savodxonligiga egaligi va chet tillarini bilishi, bazaviy ma'lumoti mos kelishi, pedagogik tajribaga egaligi kabi jixatlarga etibor berildi.

Takidlash joizki, ariza topshirgan nomzodlarning aksariyati oliy ta'limda faoliyat olib borishga noloyiq, ma'naviy, huquqiy va siyosiy savodxonligi yetarli arajada emasligi, respublikamiz oliygo'xlari raqamli tizimga o'tayotgan bir paytda nomzodlarning kompyuter savodxonligi past darajadali yoki umuman yo'qligi aniqlandi.

Shu bilan birga, ayrim kafedra mudirlarining oliy ta'limga noloyiq nomzodlarni ishga qabul qilinishiga tavsiya qilishi, ulardan turli manfaatdorliklar kitishlari kabi holatlar kuzatildi.

Universitetdagi olib borilayotgan suxbat so'rovlar davomida pedagog xodimlar tomonidan talabalarning dars jarayonlaridagi ishtiroki, bilimni inobatga olmasdan, adolatlilik prinsipini buzgan holda darsga kelmaydigan talabalarni ijobiy baxolashi, talabalar bilimni aniqlamasdan shunchaki baxolashi kabi holatlar kuzatilmoqda. Bu holat esa dars jarayonlarida doimiy qatnashadigan, bilimli talabalarga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning bilim olishga bo'lgan intilishlarini so'ndirmoqda.

Dars berayotgan pedagoglar orasida, o'z mutaxassisligini chuqur egallamagan, talabalarga dars jarayonida fan dasturidagi tegishli bilimlarni bera olmayotganlar ham kuzatilmoqda. Ushbu holatlarni olini olish uchun "Ustoz-shogird" ananasini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Hozirda, amaliyot o'tayotgan 4 kurs talabalarning amaliyot jarayonlari nazorat qilinganda, ularning aksariyati dars berish, o'z mutaxassisligini chuqur egallamaganligi, dars berishda pedagoglar tomonidan tegishli tajriba almashish amaliyotlari olib borilmayotganligi kuzatilmoqda. Bu esa oliygo'xni bitirib maktab va boshqa ta'lim muassasalariga ishlashiga to'sqinlik qiladi. Ko'pchilik talabalar universitetga bilim olish yoki ilmiy foyiat bilan shug'ullanish uchun emas, balki diplom olish uchun o'qiyotganliklari ularning pedagogik kasbga qiziqishlari yo'qligini ko'rsatmoqda.

## Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. BuxDUga ishga kirish uchun ariza bergan talabgor o'qituvchilar bilan fakultet kafedra mudirlari ularning bilim darajasi, dunyoqarashi, o'z mutaxassisligini mukammal bilishi, chet tillarini bilishi, kompyuter savodxonligiga egaligi, bazaviy mutaxassisligi to'g'ri kelishi borasida javobgar xisoblanishadi. Xodimlar bo'limiga ishga kirish uchun ariza topshirishdan oldin kafedra mudirlari va tegishli mutaxassislar suxbatidan o'tishi shart.

2. Talabalarga dars beradigan professor-o'qituvchilar darsga tayyorlanmasdan kelish, fanlar o'quv-dasturi bo'yicha o'tilmasligi, o'quvchilarni qiziqitira olmaslik, dars jarayonida keraksiz mavzularga vaqt sarflanishi kabi holatlar aniqlanganda o'qituvchilardan tegishli tushuntirish xatlari olinib, universitet rahbariyati tomonidan xayfsan, oylik maoshidan 20-30 % jarima saqlab qolish, keyinchalik ushbu holat takrorlanganda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish to'g'risidagi 373 sonli buyrug'iga asosan mexnat shartnomasini bekor qilish.

3. Universitet ishchi-xodimlar hamda professor-o'qituvchilari orasida norozilik kayfiyatlarini oldini olish, bo'lim boshliqlari, dekan va kafedra mudirlari tomonidan berilaigan tavsiyalarining shaffofligini nazorat qilish uchun universitetda ishchi-xodimlar hamda professor-o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirish, turli davlat mukofotlariga tavsiya qilish borasida universitet rahbariyati va Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens nazorat" tizimini boshqarish bo'limi ruxsati bilan amalga oshirilishi qat'iy belgilansin.

4. Fakultetlarda dars beradigan yosh, yetarli tajribaga ega bo'lmagan pedagoglar xodimlarning kasbiy malakasini oshirish, o'z ustida ishlashini nazorat qilish uchun kafedralardagi katta tajribaga ega bo'lgan professor-o'qituvchilarga birkiritib ustoz-shogird maktabini joriy etish (shogirdlarning universitetda joriy etilgan 110 ballik tizimning bajarilishi ustozlar tomonidan nazorat qilinadi). Shogirdlarning ustozlariga birkiritilganligi fakultetlar kesimida bayonnoma sifatida rasmiylashtirilsin.

5. Kontrakt va super-kontrakt asosida ta'lim oluvchi talabalar orasida darslarga surunkali qatnashmaydigan, fanlarni o'zlashtirishni xoxlamaydigan talabalarni fakultet o'qituvchilari va dekanat tomonidan asoslab talabalar safidan chetlashtirilsin

## **VII. Tanlovlar.**

**7.Kafedra mudiri, professori, dotsenti, katta o'qituvchi va o'qituvchi (asistent) lavozimlariga navbatdagi tanlovlar to'g'risida**

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi) - Bugungi kengashda belgilangan tartib asosida 42 nafar professor o'qituvchilarning ish hujjatlari o'rganilib, tegishli kafedra bayonnomalari qarorlari asosida 21 nafar talabgorlar tanlovdan o'tishga tavsiya etildi. Ularning ro'yxati jadvalda keltirilgan:

<b>Бухоро давлат университети 2021/2022 ўқув йили 2- Кенгаш Танловда иштирок этаётган профессор-ўқитувчилар рўйхати 6.10.2021й</b>				
1	Педагогика кафедраси мудир лавозимига	Олимов Ширинбой Шаропович	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Инглиз адабиёти ва стилистика кафедраси доценти
		Самиева Шахноз Хикматовна		БУХ МТИ Педагогика кафедраси доценти (PhD)
2	Гуманитар юналишларда чет тили кафедра мудир лавозимига	Хикматова Мукаддас Нуриллаевна	Бухоронома 5- июнь 44- сон	Гуманитар юналишларда чет тили кафедра мудир в.б.
		Камолова Санобар Жабборовна		Бухоро МТИ Тиллар кафедраси (PhD) ўқитувчиси
3	Гуманитар юналишларда чет тили кафедр мудир лавозимига	Атабоев Нозимжон Бобожон ўғли	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Инглиз адабиёти ва стилистика кафедраси доценти (PhD)
		Минникулов Ислом Урол ўғли		Жахон тиллари университети Инглиз тили ўқитиш методикаси кафедраси ўқитувчиси, (PhD)
4	Амалий математика ва дастураш технологияси кафедраси доценти лавозимига	Эшанкулов Хамза Илхомович	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Амалий математика ва дастураш технологияси кафедраси (PhD)катта ўқитувчиси
		Хаятов Хуршид Усмонович		Амалий математика ва дастураш технологияси

				кафедраси катта уқитувчиси
5	Миллий гоя, манавият асослари ва ҳуқуқ таълими кафедраси доценти лавозимига	Сайфиллаева Дилфуза Кахрамоновна	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Миллий гоя манавият асослари ва Ҳуқуқ таълими кафедраси (PhD) катта уқитувчиси
		Рахматова Холида Холиқовна		Бухоро МТИ Ижтимоий фанлар кафедраси катта уқитувчиси
6	Ўзбек тилшунослиги кафедраси доценти лавозимига	Назарова саида ахмеджановна	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Ўзбек тилшунослиги кафедраси доценти
		Истамова Шоҳида Махсудовна		Бошланғич таълим назарияси кафедраси доценти
7	Бошланғич таълим методикаси кафедраси доценти лавозимига	Тиловова Матлаб Мухаммедовна	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Бошланғич таълим методика кафедраси доценти
		Акрамова Гулбахор Ренатовна		Бошланғич таълим назарияси кафедраси доценти
8	Жаҳон тарихи кафедраси доценти лавозимига	Хайитов Жаҳонгир Шодмонович	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Жаҳон тарихи кафедраси уқитувчиси
		Болтаев Аъзам Хамидович		Бухоро тарихи кафедраси уқитувчиси
9	Туризм ва мехмонхона кафедраси доценти лавозимига	Ибрагимов. Нутфилло Салимович	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Туризм ва мехмонхона хужалиги кафедраси доценти
		Хидирова Гавхар Рустамовна		Сервис соҳаси иктисодиёти кафедраси доценти
10	Бухоро тарихи кафедраси доценти лавозимига	Курбонова Манзила Бокиевна	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Бухоро тарихи кафедраси доценти
		Шуқуриллаев Юнус Асрорович		Бухоро МТИ проректори, тарих фанлари номзоди, доцент
11	Мактабгача таълим кафедраси катта ўқитувчиси лавозимига	Мирзаева Дилфуза Шавкатовна	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Мактабгача таълим кафедраси ўқитувчиси
		Содиқова Хуршида Халимовна		Бухоро шаҳар Педагогика колежи ўқитувчиси
12	Факультетлараро жисмоний маданият ва спорт кафедра си доценти лавозимига	Рахмонов Рауф Расулович	Бухоронома 9 июнь 45-сон	Факультетлараро жисмоний маданият ва спорт кафедраси катта ўқитувчиси
		Давронов Нурзод Исмоилович		Жис/маданият назарияси ва услуги ёти кафедраси катта ўқитувчиси
13	Иктисодиёт кафедраси ўқитувчиси лавозимига	Амонов Мирзохид Туймуратович	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Иктисодиёт кафедраси ўқитувчиси
		Сафарова Зарифа Сулаймановна		ЎзЛиДеп Бухоро шаҳар кенга ши депутатлик гуруҳининг ижрочи котиби, иктисодчи
14	Органик ва физколлоид кимё кафедраси катта ўқитувчиси лавозимига	Нуратдинова Феруза Муидиновна	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Органик ва физколлоид кимё кафедраси (PhD) ўқитувчиси
		Мажидов Абдунаби Амонович		Бух. ТИ Биокимё кафедраси (PhD) ўқитувчиси
15	Жаҳон тарихи кафедраси катта ўқитувчиси лавозимига	Тўраев Анвар Исмоилович	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Жаҳон тарихи” кафедраси ўқитувчиси
		Ражабов Ойбек Искандарович		Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси
16	Гуманитар йўналишларда тиллар кафедраси катта ўқитувчиси лавозимига	Мирзаева Мухайё Рўзиевна	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Гуманитар йўналишларда тиллар кафедраси ўқитувчиси
		Махмурова Мавжуда Халимовна		Табиий йўналишларда чет тили кафедраси ўқитувчиси
17	Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси лавозимига	Латипов Ҳаёт Рамазонович	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Ўзбек тили ва адабиёти кафедраси ўқитувчиси (ПхД)
		Пўлатова Севара Махмуд кизи		Ўзбек тилшунослиги кафедраси ўқитувчиси
18	Инглиз адабиётшунослиги кафедраси доценти лавозимига	Мизрабова Жерен Исмаиловна	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Инглиз адабиётшунослиги кафедраси (PhD) ўқитувчиси
		Баротова Мубашира Баротовна		Бухоро МТИ Хорижий тиллар кафедраси (PhD) ўқитувчиси

19	Муסיқа таълими кафедраси катта ўқитувчиси лавозимига	Норова Шоира Умурзоковна	Бухоронома 9.06.2021 №45	Муסיқа таълими кафедраси ўқитувчиси
		Ахтамов Ислоом Илхом ўғли		Муסיқа таълими кафедраси ўқитувчиси
20	Жисмоний маданият назарияси ва услубиёти кафедраси ўқитувчиси	Иноятлов Абдулло Шодиевич	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Жисмоний маданият назарияси ва услубиёти кафедраси ўқитувчиси
		Файзиев Яхши Зиёевич		Факультетлараро жисмоний маданият ва спорт кафедраси ўқитувчиси
21	Ҳарбий таълим факультети доценти лавозимига	Рахимов Фаррух Болтаевич	Бухарский вестник 24.08.2021 №65	Ҳарбий таълим факультети катта ўқитувчиси
		Тураев Жаҳонгир Анваровичнинг		Ҳарбий таълим факультети катта ўқитувчиси

**7.1. Pedagogika kafedrasini mudiri lavozimiga:** Talabgorlar: shu kafedra mudiri Olimov Shirinboy Sharopovich va BUX MTI Pedagogika kafedrasini dotsenti (PhD) Samiyeva Shaxnoz Xikmatovning nomzodliklarini tasdiqlash to'g'risida

**ESHITILDI:**

**N.G.Dilova (BuxDU kengash kotibi, p.f.f.d., (PhD) dots)** - Kengash a'zolariga "Buxarskiy vestnik" gazetasining 2021-yil 24 - avgustdagi 65 - son tanlov e'loniga asosan shu kafedra mudiri Olimov Shirinboy Sharopovich va BUX MTI Pedagogika kafedrasini dotsenti (PhD) Samiyeva Shaxnoz Xikmatovning hujjat topshirganliklari, universitet rektori tomonidan har ikkala talabgorning arizasi qondirilib, tanlovda ishtirok etishga ruxsat berilganligini ma'lum qildi.

Kengash kotibi N.Dilova kengash a'zolarini Pedagogika kafedrasini mudiri lavozimiga talabgorlarning shaxsiy anketasi bilan tanishtirdi hamda Pedagogika kafedrasining 2021-yil 30 - sentabrdagi 2- yig'ilishida ko'rilgan tanlov natijasini e'lon qildi. Kafedra yig'ilishida ko'pchilik ovoz bilan Olimov Shirinboy Sharopovichning nomzodi kafedra mudiri lavozimiga tavsiya etilgan.

Kengash raisi O.X.Xamidov mazkur lavozimga talabgorlarning nomzodliklarini universitetda joriy etilgan **buxdulektronanlov** tizimi orqali yashirin ovoz berish byulleteniga kiritish taklifini ovozga qo'ydi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengash a'zolari tomonidan 3 kishidan iborat sanoq komissiyasi saylandi. Yig'ilishda ishtirok etgan 70 nafar kengash a'zolaridan 42 nafari tomonidan **buxdulektronanlov** tizimi byulleteniga kiritilgan nomzodlarga yashirin elektron ovoz berildi.

Sanoq komissiyasining raisi A.M.Qodirov sanoq komissiyasining 2-yig'ilish bayonidan qaror qismini o'qib eshittirdi. Yashirin ovoz berish natijasi quyidagicha:

1. Olimov Shirinboy Sharopovich: 41 kishi "rozi", 0 kishi "qarshi", buzilgan varaqa 1
2. Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna: 41 kishi -"qarshi", 0 kishi "rozi", buzilgan varaqa 1

Kengash raisi sanoq komissiyasining 2-bayoni qarorini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi, Kengash a'zolari sanoq komissiyasining mazkur qarorini bir ovozdan ma'qulladilar.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

**7.1. Olimov Shirinboy Sharopovich** – Pedagogika kafedrasini mudiri lavozimiga 5 yil muddatda saylangan deb hisoblansin.

**7.2. Gumanitar yo'nalishlarda chet tili kafedra mudiri lavozimiga:** Talabgorlar: shu kafedra mudiri Hikmatova Muqaddas Nurilloevna va Buxoro MTI tillar kafedrasini (PhD) o'qituvchisi Kamolova Sanobar Jabborovna nomzodliklarini tasdiqlash to'g'risida

**ESHITILDI:**

**N.G.Dilova (BuxDU kengash kotibi, p.f.f.d., (PhD) dots)** - Kengash a'zolariga "Buxoronoma" gazetasining 2021-yil 25- iyun 44 - son tanlov e'loniga asosan shu kafedra mudiri shu kafedra mudiri Hikmatova Muqaddas Nurilloevna va Buxoro MTI tillar kafedrasini (PhD) o'qituvchisi Kamolova

Sanobar Jabborovnaning hujjat topshirganliklari, universitet rektori tomonidan har ikkala talabgorning arizasi qondirilib, tanlovda ishtirok etishga ruxsat berilganligini ma'lum qildi.

Kengash kotibi N.Dilova kengash a'zolarini Gumanitar yo'nalishlarda chet tili kafedra mudiri lavozimiga talabgorlarning shaxsiy anketasi bilan tanishtirdi hamda kafedraning 2021-yil 6 - июлдagi навбатдан ташқари yig'ilishida ko'rilgan tanlov natijasini e'lon qildi. Kafedra yig'ilishida ko'pchilik ovoz bilan Hikmatova Muqaddas Nurilloeyvnaning nomzodi kafedra mudiri lavozimiga tavsiya etilgan.

Kengash raisi O.X.Xamidov mazkur lavozimga talabgorlarning nomzodliklarini universitetda joriy etilgan **buxduelektrontanlov** tizimi orqali yashirin ovoz berish byulleteniga kiritish taklifini ovozga qo'ydi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengash a'zolari tomonidan 3 kishidan iborat sanoq komissiyasi saylandi. Yig'ilishda ishtirok etgan 70 nafar kengash a'zolaridan 43 nafari tomonidan **buxduelektrontanlov** tizimi byulleteniga kiritilgan nomzodlarga yashirin elektron ovoz berildi.

Sanoq komissiyasining raisi A.M.Qodirov sanoq komissiyasining 2-yig'ilish bayonidan qaror qismini o'qib eshittirdi. Yashirin ovoz berish natijasi quyidagicha:

1. Hikmatova Muqaddas Nurilloeyvna: 40 kishi "rozi", 2 kishi "qarshi", buzilgan varaqa 1
2. Kamolova Sanobar Jabborovna: 40 kishi -"qarshi", 2 kishi "rozi", buzilgan varaqa 1

Kengash raisi sanoq komissiyasining 2-bayoni qarorini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi, Kengash a'zolari sanoq komissiyasining mazkur qarorini bir ovozdan ma'qulladilar.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

**7.2. Hikmatova Muqaddas Nurilloeyvna** – Gumanitar yo'nalishlarda chet tili kafedra mudiri lavozimiga 5 yil muddatda saylangan deb hisoblansin.

---

**7.3. Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasi mudiri lavozimiga:** Talabgorlar: shu kafedra dotsenti (PhD) Ataboyev Nozimjon Bobojon O'g'li va Jahon tillari universiteti ingliz tili metodikasini o'qitish kafedrasi dotsenti Minikulov Islom Urol O'g'lining nomzodliklarini tasdiqlash to'g'risida

**ESHITILDI:**

**N.G.Dilova (BuxDU kengash kotibi, p.f.f.d., (PhD) dots)** - Kengash a'zolariga “Бухарский вестник” gazetasining 2021-yil 24- avgust 68 - son tanlov e'loniga asosan shu kafedra shu kafedra dotsenti (PhD) Ataboyev Nozimjon Bobojon O'g'li va Jahon tillari universiteti ingliz tili metodikasini o'qitish kafedrasi dotsenti Minikulov Islom Urol O'g'lining hujjat topshirganliklari, universitet rektori tomonidan har ikkalatalabgorning arizasi qondirilib, tanlovda ishtirok etishga ruxsat berilganligini ma'lum qildi.

Kengash kotibi N.Dilova kengash a'zolarini Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasi mudiri lavozimiga talabgorlarning shaxsiy anketasi bilan tanishtirdi hamda kafedraning 2021-yil 28 сентябрдagi 5- yig'ilishida ko'rilgan tanlov natijasini e'lon qildi. Kafedra yig'ilishida ko'pchilik ovoz bilan Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'lining nomzodi kafedra mudiri lavozimiga tavsiya etilgan.

Kengash raisi O.X.Xamidov mazkur lavozimga talabgorlarning nomzodliklarini universitetda joriy etilgan **buxduelektrontanlov** tizimi orqali yashirin ovoz berish byulleteniga kiritish taklifini ovozga qo'ydi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengash a'zolari tomonidan 3 kishidan iborat sanoq komissiyasi saylandi. Yig'ilishda ishtirok etgan 70 nafar kengash a'zolaridan 44 nafari tomonidan **buxduelektrontanlov** tizimi byulleteniga kiritilgan nomzodlarga yashirin elektron ovoz berildi.

Sanoq komissiyasining raisi A.M.Qodirov sanoq komissiyasining 2-yig'ilish bayonidan qaror qismini o'qib eshittirdi. Yashirin ovoz berish natijasi quyidagicha:

1. Ataboyev Nozimjon Bobojon O'g'li: 42 kishi "rozi", 1 kishi "qarshi", buzilgan varaqa 1
2. Minikulov Islom Urol O'g'lining: 42 kishi -"qarshi", 1 kishi "rozi", buzilgan varaqa 1

Kengash raisi sanoq komissiyasining 2-bayoni qarorini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi, Kengash a'zolari sanoq komissiyasining mazkur qarorini bir ovozdan ma'qulladilar.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

**7.3. Ataboyev Nozimjon Bobojon O'g'li** – Ingliz adabiyoti va stilistika kafedrasini mudiri lavozimiga 5 yil muddatda saylangan deb hisoblansin.

---

**7.4. Amaliy matematika va dasturlash texnologiyasi kafedrasini dotsenti lavozimiga:** Talabgorlar: shu kafedra dotsenti (PhD) Eshonqulov Xamza Ilxomovich va shu kafedra katta o'qituvchisi Hayatov Xurshid Usmonovich nomzodliklarini tasdiqlash to'g'risida

**ESHITILDI:**

**N.G.Dilova (BuxDU kengash kotibi, p.f.f.d., (PhD) dots)** - Kengash a'zolariga "Бухарский вестник" gazetasining 2021-yil 24- avgust 65 - son tanlov e'loniga asosan shu kafedra shu kafedra dotsenti (PhD) Eshonqulov Xamza Ilxomovich va shu kafedra katta o'qituvchisi Hayatov Xurshid Usmonovich hujjat topshirganliklari, universitet rektori tomonidan har ikkalatalabgorning arizasi qondirilib, tanlovda ishtirok etishga ruxsat berilganligini ma'lum qildi.

Kengash kotibi N.Dilova kengash a'zolarini Amaliy matematika va dasturlash texnologiyasi kafedrasini dotsenti lavozimiga talabgorlarning shaxsiy anketasi bilan tanishtirdi hamda kafedraning 2021-yil 4 - oktabrdagi 6- yig'ilishida ko'rilgan tanlov natijasini e'lon qildi. Kafedra yig'ilishida ko'pchilik ovoz bilan Eshonqulov Xamza Ilxomovich nomzodi kafedra dotsenti lavozimiga tavsiya etilgan.

Kengash raisi O.X.Xamidov mazkur lavozimga talabgorlarning nomzodliklarini universitetda joriy etilgan **buxduelektron tanlov** tizimi orqali yashirin ovoz berish byulleteniga kiritish taklifini ovozga qo'ydi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengash a'zolari tomonidan 3 kishidan iborat sanoq komissiyasi saylandi. Yig'ilishda ishtirok etgan 70 nafar kengash a'zolaridan 44 nafari tomonidan **buxduelektron tanlov** tizimi byulleteniga kiritilgan nomzodlarga yashirin elektron ovoz berildi.

Sanoq komissiyasining raisi A.M.Qodirov sanoq komissiyasining 2-yig'ilish bayonidan qaror qismini o'qib eshittirdi. Yashirin ovoz berish natijasi quyidagicha:

1. Eshonqulov Xamza Ilxomovich : 42 kishi "rozi", 1 kishi "qarshi", buzilgan varaqa 1
2. Hayatov Xurshid Usmonovich: 42 kishi - "qarshi", 1 kishi "rozi", buzilgan varaqa 1

Kengash raisi sanoq komissiyasining 2-bayoni qarorini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi, Kengash a'zolari sanoq komissiyasining mazkur qarorini bir ovozdan ma'qulladilar.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

**7.4. Eshonqulov Xamza Ilxomovich** – Amaliy matematika va dasturlash texnologiyasi kafedrasini dotsenti lavozimiga 5 yil muddatda saylangan deb hisoblansin.

---

**7.5. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari vahuquq ta'limi kafedrasini dotsenti :** Talabgorlar: shu kafedra dotsenti (PhD) Sayfilloyeva Dilfuza Qahramonovna va Buxoro MTI ijtimoiy fanlar kafedrasini Raxmatova Xolida Xoliqovnaning nomzodliklarini tasdiqlash to'g'risida

**ESHITILDI:**

**N.G.Dilova (BuxDU kengash kotibi, p.f.f.d., (PhD) dots)** - Kengash a'zolariga "Бухарский вестник" gazetasining 2021-yil 24- avgust 65 - son tanlov e'loniga asosan shu kafedra shu kafedra dotsenti (PhD) Sayfilloyeva Dilfuza Qahramonovna va Buxoro MTI ijtimoiy fanlar kafedrasini Raxmatova Xolida Xoliqovnaning hujjat topshirganliklari, universitet rektori tomonidan har ikkalatalabgorning arizasi qondirilib, tanlovda **ishtirok etishga ruxsat berilganligini ma'lum qildi.**

Kengash kotibi N.Dilova kengash a'zolarini Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari vahuquq ta'limi kafedrasida dotsenti lavozimiga talabgorlarning shaxsiy anketasi bilan tanishtirdi hamda kafedraning 2021-yil 25 - sentyabrda 4- yig'ilishida ko'rilgan tanlov natijasini e'lon qildi. Kafedra yig'ilishida ko'pchilik ovoz bilan Sayfilloyeva Dilfuza Qahramonovna nomzodi kafedra dotsenti lavozimiga tavsiya etilgan.

Kengash raisi O.X.Xamidov mazkur lavozimiga talabgorlarning nomzodliklarini universitetda joriy etilgan **buxduelektronanlov** tizimi orqali yashirin ovoz berish byulleteniga kiritish taklifini ovozga qo'ydi. Kengash a'zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo'llab-quvvatlashdi.

Kengash a'zolari tomonidan 3 kishidan iborat sanoq komissiyasi saylandi. Yig'ilishda ishtirok etgan 70 nafar kengash a'zolaridan 44 nafari tomonidan **buxduelektronanlov** tizimi byulleteniga kiritilgan nomzodlarga yashirin elektron ovoz berildi.

Sanoq komissiyasining raisi A.M.Qodirov sanoq komissiyasining 2-yig'ilish bayonidan qaror qismini o'qib eshittirdi. Yashirin ovoz berish natijasi quyidagicha:

- 1.Sayfilloyeva Dilfuza Qahramonovna: 41 kishi "rozi", 1 kishi "qarshi",buzilgan varaqa 2
2. Raxmatova Xolida Xoliqovna: 41 kishi -"qarshi", 1 kishi "rozi",buzilgan varaqa 2

Kengash raisi sanoq komissiyasining 2-bayoni qarorini tasdiqlab berishni ovozga qo'ydi, Kengash a'zolari sanoq komissiyasining mazkur qarorini bir ovozdan ma'qulladilar.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, **kengash qaror qiladi:**

**7.5. Sayfilloyeva Dilfuza Qahramonovna** – Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari vahuquq ta'limi kafedrasida dotsenti 5 yil muddatda saylangan deb hisoblansin.

---

